

## QADIMGI XITOY FALSAFASI

**Furqatova Aziza Furqatovna**

*SamDCHTI Sharq tillari fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish: Xitoy tili  
yo'nalishi 2-bosqich 2403-guruh talabasi*

[azizafurkatova13@gmail.com](mailto:azizafurkatova13@gmail.com)

+998932363663

**Annotatsiya:** maqolada qadimgi xitoyda ilk diniy qarashlar, falsafa, dunyoning yaralishiga oid qarashlari, konfutsiychilik, daosizm kabi diniy ta'limotlar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** sivilizatsiya, qadriytlar, mif, animism, konfutsiychilik, ren, li, xiao, daosizm, dao, de, wuwei, yin va yang, Laozi, uyg'unlik.

**Abstract:** The article provides information about the first religious views, philosophy, views on the creation of the world, and religious teachings such as Confucianism and Taoism in ancient China.

**Keywords:** civilization, values, myth, animism, Confucianism, ren, li, xiao, Taoism, dao, de, wuwei, yin and yang, Laozi, harmony.

**Аннотация:** В статье представлены сведения о первых религиозных воззрениях, философии, взглядах на сотворение мира и религиозных учениях, таких как конфуцианство и даосизм в Древнем Китае.

**Ключевые слова:** цивилизация, ценности, миф, анимизм, конфуцианство, жэнь, ли, сяо, даосизм, дао, дэ, у-вэй, инь и ян, Лао-цзы, гармония.

Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi insoniyat tarixidagi eng qadimiy va boy madaniy meroslardan biridir. Bu xalq o'zining diniy qarashlari, axloqiy qadriyatlari hamda falsafiy tafakkuri bilan nafaqat Sharq, balki butun jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan. Xitoyda falsafaning shakllanishi inson, jamiyat va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni izlash jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Ayniqsa, siyosiy beqarorlik, urushlar va ijtimoiy inqiroz davrida bu masalalar chuqur falsafiy tahlil qilina boshlandi.

### Ilk diniy va mifologik qarashlar.

Qadimgi Xitoy xalqi dastlab animizm va ajdodlarga sig'inish g'oyalariga asoslangan diniy e'tiqodga ega edi. Ular har bir narsa — tog', daryo, daraxt, hayvon yoki osmon hodisalarida ruh mavjud, deb hisoblaganlar. Shuningdek, ajdod ruhi (tszu shen) oilaning himoyachisi sifatida muhim o'rinn tutgani.

Dunyoning yaralishiga oid qadimgi Xitoy mifologiyasida P'an Gu nomli afsonaviy mavjudot haqida hikoya qilinadi. Rivoyatga ko'ra, dastlab koinot xaos holatida bo'lgan. P'an Gu shu xaosdan chiqib, osmon bilan yer o'rtasini ajratgan, natijada olam shakllangan. Uning tanasidan tog'lar, daryolar, shamol va hayot unsurlari paydo bo'lgan. Bu tasavvur Xitoyda kosmik muvozanat g'oyasining ilk shakli bo'lib, keyinchalik falsafiy tizimlarda chuqur rivojlangan.

Falsafaning shakllanishi Miloddan avvalgi VIII–III asrlar oralig'ida, Chjou sulolasi davrida Xitoyda falsafiy fikrlar faol rivojlandi. Bu davr "Bahs qiluvchi maktablar davri" (Janggo shidai) deb ataladi. Siyosiy parokandalik, urushlar va axloqiy inqiroz jamiyatni tartib vaadolat izlashga majbur etdi. Shu tariqa inson, davlat, axloq va tabiat haqida chuqur mulohazalar yuzaga keldi.[1]

#### **Falsafaning yuzaga kelish sababları:**

1. Siyosiy beqarorlik va urushlar — tartib va tinchlikni qayta tiklash zarurati paydo bo'ldi.
2. Axloqiy inqiroz — jamiyatda qadriyatlar yo'qolishi natijasida yangi ma'naviy asos izlash ehtiyoji tug'ildi.
3. Ijtimoiy tabaqalanish — kambag'allar va boylar o'rtasidagi tafovut chuqurlashgani sayinadolat masalalari ko'tarildi.
4. Bilimga, donolik va o'qimishlilikka e'tibor — donishmandlar siyosat, axloq, tabiat va inson mohiyati haqida izlanish olib bordilar.

#### **KONFUTSIYCHILIK – XITOY AXLOQIY FALSAFASINING ASOSI**

##### **1. Tarixiy manzara**

Konfutsiychilik (xitoycha 儒家 Rújīā) — qadimgi Xitoyda miloddan avvalgi VI–V asrlarda paydo bo'lgan falsafiy ta'limotdir. Uning asoschisi Konfutsiy (Kōng Fūzǐ) (m.a. 551–479-yillar) bo'lib, u Chjou sulolasi davridagi siyosiy beqarorlik, axloqiy inqiroz va urushlardan tashvishga tushgan.[2]

Konfutsiy jamiyatni saqlab qolishning yagona yo'li — axloqiy qadriyatlar va insoniylikni tiklash deb bildi. U amalda boshqaruv tizimini o'zgartirishdan ko'ra, insonni to'g'ri tarbiyalash, ya'ni ichki dunyosini poklash tarafdoi edi.

##### **2. Asosiy maqsad va g'oya**

Konfutsiychilikning bosh maqsadi — jamiyatda tinchlik, tartib va adolatni o'rnatish. Bunga erishish uchun inson o'zini tarbiyalashi, boshqalar bilan munosabatda odob va axloqni saqlashi zarur, deb hisoblangan.

Konfutsiy shunday degan:

"Agar inson o'zini tuzatmasa, u boshqalarni tuzatolmaydi."

U insonni jamiyatning markazida ko‘radi, lekin bu markaz — hukmronlik emas, balki axloqiy yetakchilikdir. Inson boshqalarga namunaviy bo‘lish orqali ta’sir ko‘rsatadi.

### 3. Konfutsiy ta’limotining asosiy tushunchalari

#### **Rén (仁) — Insonparvarlik, mehr-shafqat**

Bu Konfutsiychilikning eng muhim tamoyilidir. Rén — bu boshqalarni sevish, ularga zarar yetkazmaslik, ularning holatini tushunishga intilish.

“O‘zingga ravo ko‘rmagan narsani boshqalarga ravo ko‘rma,” — degan Konfutsiy.

Bu g‘oya G‘arb falsafasidagi “oltin qoida” bilan hamohangdir.

#### **Lǐ (礼) — Marosim, odob**

Lǐ — insonning jamiyatda o‘z o‘rnini bilishi, har bir vaziyatda odob bilan ish tutishi demakdir. Bu tushuncha faqat diniy marosim emas, balki kundalik hayotdagi hurmat, xulq, so‘zlashish madaniyatini ham qamrab oladi.

Masalan: ota-onaga hurmat, ustozni qadrlash, kattaga joy berish — bularning barchasi liniing amaliy ifodasidir.

#### **Xiào (孝) — Ota-onaga hurmat va sadoqat**

Konfutsiy oilani jamiyatning asosi deb bilgan. Ota-onani hurmat qilish, ularning mehnatini qadrlash, ularga sadoqatli bo‘lish — eng oliy burch hisoblangan. Uningcha, kim ota-onasini hurmat qilsa, u butun jamiyatni ham hurmat qiladi.

#### **Yì (义) — Adolat va vijdon**

Yì insonning to‘g‘rilik va halollikka asoslangan xatti-harakatidir. Bu tushuncha manfaatdan ko‘ra vijdon bilan ish tutish, adolatni ustun qo‘yishni anglatadi.

#### **Zhì (智) — Donolik**

Zhì insonning hayotiy tajriba, bilim va idrok orqali to‘g‘rini noto‘g‘ridan ajrata bilish qobiliyatidir. [4]Konfutsiy donolikni faqat bilim emas, balki axloqiy anglash deb bilgan.

### 4. Konfutsiy jamiyatni barqaror tutuvchi “besh asosiy munosabat”ni belgilagan:

1. Hukmdor — Fuqarolar (adil boshqaruv)

2. Ota — O‘g‘il (hurmat va itoat)

3. Er — Xotin (mas’uliyat va sadoqat)

4. Aka — Uka (katta-kiichikka hurmat)

5. Do‘st — Do‘st (o‘zaro sadoqat va tenglik)

Bu munosabatlar hurmat, adolat va mas’uliyat tamoyillariga asoslangan.

#### 5. Davlat boshqaruvi haqidagi qarashlar

Konfutsiy uchun ideal hukmdor — axloqan yetuk, adolatli va mehribon shaxsdir. U xalqni majburlab emas, balki o‘z namunasi bilan boshqarishi kerak.

“Agar hukmdor to‘g‘ri bo‘lsa, buyruqlar so‘zsiz bajariladi; agar u adolatsiz bo‘lsa, eng kuchli qonun ham foydasiz,” — degan Konfutsiy. Shu sababli Konfutsiychilik siyosiy hokimiyatni axloqiy mas’uliyat bilan bog‘laydi.

#### 6. Konfutsiy asarları

Konfutsiyning o‘zidan yozma asarlar qolmagan, ammo uning shogirdlari tomonidan “Lúnyú” (Analektlar) nomli kitob to‘plangan.[4]

Bu asarda Konfutsiyning suhbatlari, hikmatlari va ta’limotlari jamlangan. U Xitoy madaniyatining muqaddas matni sifatida e’zozlanadi.

#### DAOSIZM (DAOCHILIK) — TABIAT VA UYG‘UNLIK FALSAFASI

Daosizm (道家 — Dàojiā) qadimgi Xitoy falsafasining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu ta’limot insonni tabiat bilan uyg‘unlikda yashashga, ortiqcha aralashuvdan saqlanishga, ichki tinchlik va muvozanatni topishga chaqiradi.

Daosizm Konfutsiychilikdan farqli o‘laroq, ijtimoiy tartib va marosimlarni emas, balki tabiiylik va hayot oqimini bosh mezon sifatida ko‘radi.[5]

#### 1. Tarixiy shakllanishi

Daosizmning asoschisi sifatida Laozi (Lǎozǐ) tan olinadi. U miloddan avvalgi VI asrda yashagan donishmand bo‘lib, uning nomi “Qari ustoz” degan ma’noni anglatadi. Uning ta’limoti “Dao de Jing” (“Yo‘l va fazilat kitobi”) asarida bayon qilingan. Keyinchalik bu g‘oyalar Chjuan Tsz (Zhuāngzǐ) tomonidan yanada chuqurlashtirilgan.

#### 2. Asosiy tushuncha — Dao (道)

Daosizmning markaziy tushunchasi — Dao, ya’ni “yo‘l”, “tabiiy qonun”, “borliqning manbai”. Laozi shunday degan: “Dao — bu so‘z bilan ifoda etib bo‘lmaydigan narsa. U osmon va yerning ildizi, hamma narsaning boshlanishidir.” Dao — bu koinotdagi hamma narsani harakatga keltiruvchi, ammo ko‘rinmas kuchdir. U na xudo, na odam; balki tabiiy tartibning o‘zidir.

#### De (德) — Fazilat

Dao bilan uyg‘un yashash uchun inson De, ya’ni fazilatni egallashi kerak. Bu fazilat majburiy qonun emas, balki ichki tabiiylik, halollik, muloyimlik va kamtarinlikda namoyon bo‘ladi.

#### Wúwéi (无为) — “Harakat qilmaslik” tamoyili

Daosizmning eng mashhur g‘oyalaridan biri — wúwéi, ya’ni “hech narsa qilmaslik orqali harakat qilish”. Bu so‘z ma’nан dangasalikni emas, balki tabiiy oqimga qarshi bormaslik, majburlash va sun’iy aralashuvdan voz kechish deganidir.[6] Masalan, suv oqimi — tabiiy, u to‘singga duch kelsa, aylanib o‘tadi, lekin maqsadiga baribir yetadi. Inson ham hayotda shunday tabiiy va moslashuvchan bo‘lishi kerak. “Eng yumshoq narsa eng qattiq narsani yenga oladi,” — degan Laozi.

### **3. Yin va Yang — Borliqdagi muvozanat**

Daosizmda borliq ikki qarama-qarshi, ammo uyg‘un kuchdan — Yin va Yangdan iborat deb qaraladi:

- **Yin (阴)** — qorong‘ilik, ayollik, jimjitlik, sovuqlik, tunda ramz.
- **Yang (阳)** — yorug‘lik, erkaklik, harakat, issiqlik, kunduz ramzi.

Bu ikki kuch doimo bir-birini to‘ldiradi. Ular raqib emas, balki bir butunning ikki tomoni. Hayot — shu ikki kuchning uyg‘unligidir. Masalan, kecha-kunduz, erkak-ayol, sokinlik-harakat — yin va yangning ifodalaridir.

### **4. Inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik**

Daosizm insonni tabiatning ajralmas qismi deb biladi. Inson tabiatni zabit etishga emas, uni tushunishga va u bilan uyg‘un yashashga intilishi kerak. [7]Konfutsiychilik “jamiyatni tuzatish”ga chaqirsa, daosizm “o‘z qalbini tinchlantirish”ga undaydi. Bu falsafa tinchlik, kamtarinlik, tabiiy hayot, ichki sokinlikni ulug‘laydi.

Keyinchalik, milodiy I asrga kelib, daosizm diniy oqimga aylandi. Unda:

- Dao — oliv kuch,
- Laozi — ilohiy ustoz sifatida qabul qilindi.

Daosizm diniy shaklda ruhiy poklanish, uzoq umr, abadiylikka erishish, taoist marosimlar, alkimyo va meditatsiya orqali ruhni mustahkamlashni o‘rgatadi.

### **Xitoy falsafasining umumiy xususiyatlari**

Qadimgi Xitoy falsafasi G‘arb falsafasidan farqli o‘laroq, abstrakt nazariyadan ko‘ra, amaliy hayot, axloq, davlat boshqaruvi va tabiat bilan uyg‘unlik masalalariga ko‘proq e’tibor qaratgan. [8]Unda inson tabiatning bir bo‘lagi sifatida qaraladi, shuning uchun ham Xitoy tafakkuri muvozanat, tinchlik va uyg‘unlikni eng oliv qadriyat deb bilgan. Qadimgi Xitoy falsafasi insonni axloqiy jihatdan tarbiyalash, tabiat va jamiyat o‘rtasida uyg‘unlik o‘rnatish, adolatli boshqaruv tizimini shakllantirishga qaratilgan. Konfutsiychilik va daosizm xitoy madaniyatining ma’naviy poydevorini yaratgan, ularning g‘oyalari hozirgacha sharq xalqlarining tafakkuri va turmush tarziga chuqur singib ketgan.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Фалсафа: Қомусий лугат. Т., 2004, 123-бет.
2. The Four Books — Analects, The Great Learning, The Doctrine of the Mean, va Mencius.
3. Sacred Books of China: the Texts of Confucianism (James Legge tarjimalari va sharhlari)

4. Sources of Chinese Tradition (Wm. Theodore de Bary va Irene Bloom tahriri) — konfutsiychilik tarixi
5. Dao De Jing (Tao Te Ching) — Laozi asari
6. Stanford Encyclopedia of Philosophy
7. Asia for Educators (Columbia University) — Konfutsiychilik va qadimgi Xitoy manbalari (Analects qismlari)
8. Chinese Text Project (CTEXT) — main book 96p.